



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

2021 y. «28» unve № 26

### **Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha Uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qaroriga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Statistika kengashining 2020- yil 6- noyabrdagi 02-/1-1721-son yig'ilishi bayoni 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlikka oid statistikani rivojlantirish bo'yicha tarmoq ishchi guruhining 2020-2021- yillar uchun Harakatlar rejasi" 1.1 - hamda 15.1 - bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin:

Davlat statistika qo'mitasining 2019- yil 24- iyundagi "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar dinamikasini sof choraklar asosida aniqlashda mavsumiylik omillarini statistik hisobga olish bo'yicha uslubiy nizom hamda Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha uslubiy Nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 31-son qarori;

Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30- noyabrdagi Davlat statistika qo'mitasining 2019- yil 24- iyundagi "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar dinamikasini sof choraklar asosida aniqlashda mavsumiylik omillarini statistik hisobga olish bo'yicha uslubiy nizom hamda Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha uslubiy Nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 42-son qarori.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov